



Geofazoviy texnologiyalar va sun‘iy intellektni joriy etish
boshqarmasi to‘g‘risida
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda — Qo‘mita) Geofazoviy texnologiyalar va sun‘iy intellektni joriy etish boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda — Boshqarma) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-75-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

3. Boshqarma Qo‘mita markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

4. Boshqarma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunlarga, Oliy Majlisning me‘yoriy qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomga va mazkur Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

5. Qo‘mita tarkibiy bo‘linmalarida sun‘iy intellekt va geofazoviy texnologiyalarni joriy etish, geofazoviy ma‘lumotlarni boshqarish, qayta ishlash, vizualizatsiya qilish hamda ushbu yo‘nalishlarda uslubiy va texnologik ko‘mak ko‘rsatishga yo‘naltirilgan.

6. Boshqarma o‘z faoliyatini Qo‘mita raisining rahbarligida amalga oshiradi. Boshqarma o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha Qo‘mita raisining raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni joriy etish bo‘yicha o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

2-bob. Boshqarmaning asosiy vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish sohasida:

- xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0 modellari asosida) hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini joriy etishni ta‘minlash;

- sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni shakllantirishda takliflar ishlab chiqishda ishtirok etish;

- sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga oid reglament va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish yuzasidan istiqbolli loyihalar bo‘yicha takliflar kiritish;

- birlamchi statistik ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tarqatish jarayonlarida sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali takomillashtirish;

- sun'iy intellekt yechimlarini sinovdan o'tkazish, moslashtirish va takomillashtirish;
- ma'lumotlarni qayta ishlash hamda sun'iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish.

b) geofazoviy texnologiyalarni joriy etish sohasida:

- geofazoviy axborot tizimlarini rivojlantirish, joriy etish va texnik qo'llab-quvvatlash;
- statistika ma'lumotlarini fazoviy tahlil usullari bilan qayta ishlash va vizualizatsiya qilish;
- geofazoviy ma'lumotlar bazalarini shakllantirib borish va ularning dolzarbligini ta'minlash;

- geofazoviy texnologiyalarni joriy etish yuzasidan xalqaro tajribalarni o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqish;

- davlat va nodavlat tashkilotlar bilan geofazoviy ma'lumotlar almashish mexanizmlarini yo'lga qo'yish;

- statistika organlarida geofazoviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish.

8. Boshqarma yuklatilgan ishlarni bajarishda quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- sun'iy intellekt va geofazoviy texnologiyalarni joriy etishda me'yoriy-huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni ishlab chiqadi;

- statistika organlarida yangi sun'iy intellekt va geofazoviy texnologiyalarni joriy etishni muvofiqlashtiradi;

- geofazoviy texnologiyalar va sun'iy intellekt yo'nalishlarida loyihalarni amalga oshirish, uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maqsadida xalqaro va mahalliy ekspertlarni belgilangan tartibda jalb etish hamda ular bilan hamkorlikni tashkil etish;

- xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning geofazoviy va sun'iy intellekt sohasidagi ilg'or tajribalarini o'rganadi va tadbiq etadi;

- Boshqarmaga yuklangan boshqa vazifalarni o'rnatilgan tartibda amalga oshiradi.

3-bob. Boshqarmaning huquqlari va majburiyatlari

9. Boshqarma o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

- o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish davomida belgilangan tartibda Qo'mita markaziy apparatining boshqa bo'limlaridan va hududiy statistika organlaridan ma'lumotlarni so'rash va olish;

- Qo'mita rahbariyatiga sun'iy intellekt va geofazoviy texnologiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha takliflar kiritish;

- statistika organlarida sun'iy intellekt va geofazoviy texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

- Boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Qo'mita bo'limlarida majlis va yig'ilishlar o'tkazish;

- Boshqarma faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha konferensiya ishlarida, shu jumladan, xalqaro seminar va majlislarda, shuningdek, xalqaro loyihalarda ishtirok etish.

10. Boshqarmaning javobgarligi:

- o'ziga yuklatilgan vazifalarni haqqoniy tarzda va samarali amalga oshirish;

- Boshqarmaga taqdim etilgan loyihalar hujjatlarini, taklif va savollarini sifatli bajarishni tashkil qilish;

- Boshqarma xodimlari tomonidan belgilangan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash;

- Boshqarmaga kelib tushgan va chiqayotgan materiallar bo'yicha davlat va tijorat sirlarining saqlanishi, shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya qilinishi uchun javobgar bo'ladi.

4-bob. Boshqarma tuzilmasi

11. Boshqarma tuzilmasi boshqarma boshlig'i va boshqarma boshlig'i o'rinbosarini o'z ichiga oladi, shuningdek:

- Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'limi;
- Geofazoviy texnologiyalarni joriy etish bo'limi.

Bo'limlar tarkibiga: bo'lim boshliqlari va bosh mutaxassislar kiradi.

12. Boshqarmaning ishlarida boshqarma boshlig'i rahbarlik qiladi.

13. Boshqarma boshlig'i, boshqarma boshlig'i o'rinbosari, bo'lim boshlig'i va mutaxassislar Qo'mita raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

5-bob. Boshqarma faoliyatini tashkil etish

14. Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga amal qiladi.

Boshqarmaning ish rejasi Qo'mita raisi tomonidan tasdiqlanadigan Qo'mitaning ish rejalari asosida shakllantiriladi va raisning raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etish bo'yicha o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Boshqarma tarkibiga kiruvchi xodimlarning lavozim vazifalari boshqarma boshlig'i tomonidan tayyorlanib, rais yoki raisning raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etish bo'yicha o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

15. Boshqarma boshlig'i:

- Boshqarmaning butun faoliyatiga rahbarlik qiladi, boshqarma tarkibiga kiruvchi bo'limlar boshliqlarining ishlarini tashkil etadi, boshqarmaga yuklatilgan vazifalarni bajarilishi, ijro va mehnat intizomi holati uchun shaxsan javob beradi;

- Boshqarma xodimlari jadvali va tasdiqlangan tuzilmaga muvofiq nomzodlarni malaka darajasini oshirish, kasbiy faoliyatini oshirish, imtiyozlar va ularni intizomiy jazolash chora-tadbirlarini o'rganib chiqqan holda rahbariyatga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;

- Boshqarma ish reja loyihasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun rais o'rinbosariga taqdim etadi;

- Boshqarma faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarini nazorat qiladi;

- Boshqarma xodimlari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlaydi;

- Qo'mita majlislari va yig'ilishlarida, shuningdek, Qo'mita rahbariyati topshirig'iga asosan boshqaruv faoliyatiga kiruvchi idoralararo ishchi guruhlar masalalarida ishtirok etadi;

- Qo'mita raisi va uning o'rinbosarlari topshiriqlariga muvofiq, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, qo'yilgan ustuvor vazifalarni yechishda samarali takliflarni ishlab chiqish va tayyorlashni amalga oshiradi;

- sun'iy intellekt va geofazoviy texnologiyalarni rivojlantirishda bo'lim rahbarlari hamda mutaxassislarga maslahat va uslubiy yordam ko'rsatadi;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlar, rejalar va dasturlar loyihalarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda, shuningdek, ularning davlat statistikasiga tegishli qismini ijro etishda ishtirok etadi;

- Boshqarma kadrlar zaxirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta'minlaydi;

- ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o'z vaqtida ijro etilishini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi.

16 Boshqarma boshlig'i o'z vazifasini qonun hujjatlarida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra vaqtinchalik bajara olmagan taqdirda uning vazifasini boshqarma boshlig'i o'rinbosari vaqtinchalik bajaradi.

17. Boshqarma boshlig'i o'rinbosari — Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'limi boshlig'i:

a) Boshqarma boshlig'i bilan kelishilgan holda quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini sifatli va o'z vaqtida tayyorlanishini tashkil qilish;

- vazifalar taqsimotiga muvofiq, bo'lim faoliyatiga xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0 modellari asosida) hamda ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishda ishtirok etish;

- Boshqarma faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarini nazorat qilish;

- Boshqarma xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash va ularning ishini muvofiqlashtirish, boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini nazorat qilish;

- Boshqarma ishining samaradorligini oshirish va uni kadrlar bilan to'ldirish choralari ko'rishda boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

b) bo'limga tegishli ishlarni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni shakllantirish;

- sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga oid reglament va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish yuzasidan istiqbolli loyihalar bo'yicha takliflar kiritish;

- birlamchi statistik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tarqatish jarayonlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali takomillashtirish;

- sun'iy intellekt modellarini o'qitish, ularni sinovdan o'tkazish va rivojlantirish;

- ma'lumotlarni qayta ishlash hamda sun'iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish.

18. Geofazoviy texnologiyalarni joriy etish bo'limi boshlig'i:

- geofazoviy axborot tizimlarini rivojlantirish, joriy etish va texnik qo'llab-quvvatlash;

- vazifalar taqsimotiga muvofiq, bo'lim faoliyatiga xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0 modellari asosida) hamda ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishda ishtirok etish;

- fazoviy qayta ishlash, vizualizatsiya qilish va geoma'lumotlarni tayyorlash;

- geofazoviy ma'lumotlar bazalarini shakllantirib borish va ularning dolzarbligini ta'minlash;

- geofazoviy texnologiyalarni joriy etish yuzasidan xalqaro tajribalarni o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqish;

- davlat va nodavlat tashkilotlar bilan vakolat doirasida hamkorlikni tashkil etish;

- statistika organlarida geofazoviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha uslubiy va metodologik hujjatlarni tayyorlash;

- geofazoviy dasturiy ta'minotlar (geofazoviy axborot tizimlar)ni joriy etish va ulardan foydalanishni tashkil qilish;

- geofazoviy ma'lumotlar sifatini nazorat qilish va ularni yangilab borish.

19. Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi:

- sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni shakllantirish ishlarida ishtirok etish;

- vazifalar taqsimotiga muvofiq, bo'lim faoliyatiga xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0 modellari asosida) hamda ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishda ishtirok etish;

- sun'iy intellekt texnologiyalari foydalanishga oid reglament va mexanizmlarini ishlab chiqishda ko'maklashish;

- sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish yuzasidan istiqbolli loyihalar bo'yicha takliflar kiritish;

- birlamchi statistik ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash jarayonlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash;

- sun'iy intellekt modellarini o'qitish va sinovdan o'tkazish ishlarida ishtirok etish.

20. Geofazoviy texnologiyalarni joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi:

- geofazoviy axborot tizimlarini joriy etish va texnik qo'llab-quvvatlash ishlarida bevosita ishtirok etish;

- vazifalar taqsimotiga muvofiq, bo'lim faoliyatiga xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0 modellari asosida) hamda ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishda ishtirok etish;

- statistik ma'lumotlarni geofazoviy axborot tizimlari yordamida qayta ishlash va tahlil qilish;

- geofazoviy ma'lumotlar bazasiga yangi ma'lumotlarni kiritish va ularning sifatini ta'minlash;

- geofazoviy texnologiyalar bo'yicha uslubiy hujjatlarni tayyorlashda ishtirok etish;

- xalqaro tajribalarni o'rganish va bo'lim faoliyatiga tadbiiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

6-bob. Yakuniy qoidalar

21. Boshqarmani qayta tashkil etish, qo'shib yuborish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

22. Ushbu Nizom talablarining boshqarma xodimlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan buzilishi aniqlangan holatlar bartaraf etiladi, shuningdek, aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.